

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JUMANAZAROVA FOTIMA KUCHKARBAYEVNA

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINING TA‘MINLANISHI
(1991-2021 yy. Jizzax viloyati misolida)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of doctor of philosophy (PhD)

Jumanazarova Fotima Kuchkarbayevna

О‘zbekistonda xotin-qizlar bandligining ta‘minlanishi (1991-2021 yu. Jizzax viloyati misolida).....3

Жуманазарова Фотима Кучкарбаевна

Обеспечение занятости женщин в Узбекистане (на примере Джизакской области в 1991-2021 гг).....23

Jumanazarova Fotima Kuchkarbaevna

Ensuring Women’s Employment in Uzbekistan (The case of Jizzakh region from 1991-2021).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JUMANAZAROVA FOTIMA KUCHKARBAYEVNA

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINING TA‘MINLANISHI
(1991-2021 yy. Jizzax viloyati misolida)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1401 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.sf-ik.uz) va "Ziyonet" (www.ziyonet.uz) axborot-ta'lim portalining manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yermetov Avaz Abdullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Daliboyeva Nilufar Djo'rayevna
tarix fanlari nomzodi, professor
doktori, professori

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat
Texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "26" 09 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining Tarix fakulteti, 1-qavat, 110 auditoriya. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (145 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino. Tel: (99871) 246-46-55; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "11" 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil "22" 05 dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi).



O'M.Mavlanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
rais o'rinbosari, t.f.d., professor.

J.E.Tog'ayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD) dotsent.

N.U.Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidag ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor.

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Bugungi murakkab sharoitda, dunyo miqyosiga ko'ra misli ko'rilmagan qurolli ziddiyatlar hamda xalqaro tinchlik va barqarorlikka oshib borayotgan tahdid sahnida xotin-qizlar huquqlari masalasi inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Inson huquqlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotni ta'minlash BMTning, ayniqsa, butun dunyo bo'ylab ayollar va qizlar uchun barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish maqsadida hukumat faoliyatida ayollar boshqaruvi va ishtiroki tengligini ta'minlash, ayollarning daromad olish, munosib ish tanlash va iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini yaratish, barcha ayollar va qizlar zo'ravonlikning barcha shakllaridan holiligini, ayollar va qizlar barqaror tinchlik va insonparvarlik harakatlaridan teng foyda olishini ta'minlash vazifalarni amalga oshirib keldi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi faolligi, reproduktiv va oila huquqlarini hal etish masalalari, xotin-qizlar gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy jihatlarini, irqiy va sinfiy kamsitish tendensiyalariga qarshi kurash masalalari dolzarb muammolari sifatida dunyo ilmiy jamiyati tomonidan o'rganib kelinmoqda. Bundan tashqari, ushbu sohada gender tadqiqot loyihalarini qo'llab-quvvatlash, nodavlat-notijorat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy siyosat istiqbollari alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash bo'yicha jadal islohotlar amalga oshirib kelindi. Xususan, xotin-qizlar bandlik dasturi doirasida kichik biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish, ishsiz xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, xotin-qizlarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish vazifalari amalga oshirildi. Bu xususda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'yantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'g'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak!" deb ta'kidladi. Islohotlarning bugungi bosqichida ham mamlakatda xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ehtiyojmand xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi islohotlar tizimli davom etdi. BMT 2015- yildagi Barqaror rivojlanish bo'yicha sammiti rezolyusiyasiga muvofiq O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Unda 2030-yilgacha barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi PF-2326-son "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni, 2004-yil 25-maydagi PF-3434-son "O'zbekiston

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so'zi, № 127, 2019 yil 22 iyun, B.2.

Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab- quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, o‘zbek xalqining boy tarixi va madaniy merosini ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilish kabi vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuning tarixshunoslik masalalariga tegishli bo‘lgan adabiyotlarni quyidagi ikki guruhga, ya’ni mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr qilingan adabiyotlar va tadqiqot ishlari hamda xorijiy mualliflarning asarlariga ajratib o‘rganildi.

Birinchi guruhga kiritilgan ilmiy izlanishlar asosan ijtimoiy gumanitar sohasi vakillari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, jumladan, tarixchilar² tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida inson omili, aholini ish bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalarida bandlik masalalariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar e‘lon qilindi. Shuningdek, iqtisodchilar³ tomonidan ham qishloq xo‘jaligida aholi bandligiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

²Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: история изучения и современные проблемы. – Ташкент: Фан, 1991. - 132 с.;Абдуллаева Я.А. Женский вопрос в Каракалпакстане в конце XIX-XX вв. (социально-политический аспект). Автореф. дисс...докт. ист. наук. – Ташкент, 2005. – 46 с.; Baltabayeva M. O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki (1991-2019 yillar). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss. – Andijon, 2019. – 175 b.; Shamsiyeva M. O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘rni (1991-2010 yy.). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss....avtoref. – Toshkent, 2020. – 48 b.; Toliboyeva N. O‘zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyati (1991-2019 yy.). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss....avtoref. – Toshkent, 2020. – 57 b.; Begamova N. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarini tashkil topishi va klaster tizimi: tarix va tahlil (1991-2022 yillar, Surxondaryo viloyati misolida). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss....avtoref. – Termiz, 2022. – 31 b.; Radjabova S. Surxondaryo viloyati xotin-qizlarining jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘rni (1991-2020 yy.). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss....avtoref. – Termiz, 2022. – 54 b.; Abduqodirov S. Jizzax vohasi gilamdo‘zlik an‘analari va transformatsiyalari (tarixiy-etnografik tadqiqot). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss. – Toshkent, 2022. – 192 b.; Ro‘ziyeva D. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtiroki (Navoiy viloyati misolida). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss. – Buxoro, 2022. – 54 b.; Tuxtamisheva F. Qashqadaryo vohasi an‘anaviy kashtado‘zligining rivojlanish xususiyatlari. Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss....avtoref. – Termiz, 2022. – 56 b.; Azamatova G.B. O‘zbekiston xotin-qizlarining mehnat migratsiyasi tarixi (1991-2021 yy.). Tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) ilm.daraja olish uchun yoz. diss....avtoref. – Toshkent, 2024. – 57 b.

³Ирисова М. Занятость женщин Узбекистана в условиях перехода к рыночным отношениям. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. канд. эконоом наук. – Ташкент, 1995. – 21 с; Xodiyev B.Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Iqt. fan. dok. ilm. daraja olish uchun yoz.... diss. – Toshkent, 2000. – 338 b.; Ernazarov Sh. Bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo‘jalik korxonalaridagi bandlik muammosi va uni hal qilish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqt. fan. nomz. ilm. daraja olish uchun yoz. diss.... avtoref. – Toshkent, 2001. – 22 b.; Rustamov E. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida aholining ish bilan bandlik

Falsafa⁴ sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda ayollar masalasining umumijtimoiy va milliy jihatlari, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog'lom avlodni tarbiyalashning ijtimoiy falsafiy muammolari zamonaviy talablar asosida o'rganilib, nazariy xulosalar berilgan. Siyosatshunoslik⁵ sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini oshirishning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, ayollar davlatning rivojlanish strategiyasida o'ziga xos o'rin egallashi, shuningdek, davlat tomonidan kadrlar tayyorlash va yoshlarning bandlik muammosini hal qilish borasida olib borilgan chora-tadbirlar tadqiq etilgan.

Huquqshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida⁶ xalqaro va milliy huquqda xotin-qizlarning gender va reproduktiv huquqlari, shuningdek, ayollar bandligi masalasi qisman tahlil etilgan. Sotsiologiya sohasi vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda⁷ xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligining retrospektiv xususiyatlari, gender tenglik, jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida xotin-qizlar faolligini oshirishning tashkiliy mexanizmlari o'rganilgan. O'zbekistonda aholini bandligini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga hamda xotin-qizlar tadbirkorligi kabi masalalarni tahlil qilishga oid yangicha yondashuvlar bir qator ilmiy maqolalarda⁸ ham o'z ifodasini topgan.

darajasini oshirish yo'llari. Iqt. fan. nomz. ilm. daraja olish uchun yoz. ...diss. – Toshkent, 2001. – 148 b.; Mirzakarimova M. Milliy iqtisodiyotda bandlik tarkibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari.

Abulqosimov H.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo'llari. - Toshkent: Moliya, 2005. – 144 b.; Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012. – 388 b.; Muxammedov M., Isxakova S., Mardonov B.B. Qishloqlarda aholi bandligi: muammolar va yechimlar. Samarqand: "Zarafshon" nashriyoti, 2014. – 204 b.; Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 232 b.; Fayzullayev N.B. Mintaqada nostandart bandlik asosida kichik biznesning rivojlanishi: kasanachilik, tashkiliy-iqtisodiy muammolar, omillar va yechimlar. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 184 b.; Устойчивая занятость в Узбекистане: состояние, проблемы и пути их решение. Отв. редактор Х.Кутлиев. – Т., 2018. – 168 с.; Mustafoyev G'.S. Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi va aholi bandligi. – Samarqand.: SamISI, 2022. – 190 b.

⁴Xolmatova M.X. Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog'lom avlodni tarbiyalashning ijtimoiy falsafiy muammolari. Fal.fan.dok. ilm. daraja olish uchun yoz. diss. ...avtoref.– Toshkent, 1998. – 53 b.; Axrorova S. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari. Fal.fan.nomz. ilm. daraja olish uchun yoz. diss. avtoref.– Toshkent, 2005.– 24 b.; Karimova M.S. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashda islomiy qadriyatlarining o'rni. Fal.fan.nomz. ilm. daraja olish uchun yoz. diss....avtoref.– Toshkent, 2008.– 23 b.; Xuseynova A. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ayollar faolligini oshirish muammolar (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fal.fan.nomz. ilm. daraja olish uchun yoz. diss....avtoref.– Toshkent, 2010.– 43 b.; Safayeva S.X. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlari.– Tashkent: O'zbekiston, 2003. – 158 b.;

⁵Tangriyev L. Yoshlar siyosat sub'ekti: bandlik muammosi. Siyosiy fan.nomz. ilm. daraja olish uchun yoz....diss.– Toshkent, 2001.– 145 b.; Sultonova E. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida).– Toshkent: JIDU, 2005. – 250 b.;

⁶Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari. Yuridik fan. nomz. ilm. daraja olish uchun yoz.diss. ...avtoref. – Toshkent, 2002. – 41 b.; Hamrayeva Sh.H. Ayollar traffigini bartaraf etishning xalqaro huquqiy muammolari. Yuridik fan. nomz. ilm. daraja olish uchun yoz.diss. ...avtoref.– Toshkent, 2004.– 22 b.;

⁷O'razaliyeva G. Gender munosabatlarining ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga ta'siri (sotsiologik tahlil). Sotsiologiya fan.nomz. ilm. daraja olish uchun yoz.diss. avtoref.– Toshkent, 2004.– 23 b.; G'afforova M. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlar mavqei. Sotsiologiya fan. bo'yicha fal.dok. (PhD) ilm. daraja olish uchun yoz.diss....avtoref.– Toshkent, 2018. – 44 b.; G'afforova M. O'zbekiston xotin-qizlarining sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlar tendensiyasi. Sotsiologiya fan. dok. (DSc) ilm. daraja olish uchun yoz.diss....avtoref.– Toshkent, 2021.– 65 b.

⁸Ubaydullayeva R.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ayollar va mehnat // O'zbekiston ijtimoiy fanlar. 1995, № 9. – B. 24-25.; O'sha muallif. Исследование гендерных проблем – важное направление в развитии социальных наук в Узбекистане // O'zbekistonda oila va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari (to'plam). – Toshkent: Fan, 1999. - B. 11-16.; Ubaydullayeva R.A. Ayol va huquq. // Ijtimoiy fikr. Inson

Ikkinchi guruhga kiritilgan xorij tadqiqotchilari, jumladan, MDH davlatlari orasida, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasida e‘lon qilingan adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqot ishlarida⁹ bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida aholi bandligini ta‘minlash masalalariga alohida ahamiyat berilgan.

Xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlarda¹⁰ ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy-madaniy jarayonlarga, shuningdek, ularni davlat va nodavlat tashkilotlarni boshqarishga keng jalb etish hamda tadbirkorlik va intellektual salohiyatini oshirish muammolari, ayollar emansipatsiyasi, islom olamida xotin-qizlar masalasiga doir turli yondoshuvlar ilmiy asosda yoritib berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetining fundamental tadqiqot loyihasi doirasida ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq bajarilgan.

huquqlari, 1999, № 3-4. - B. 22-26; Рахимова Н. Конкурентоспособность женской рабочей силы // *Bozor, pul, kredit*. 2002, № 2. - С. 84-86.; Гонорская А. Ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari xotin-qizlar bandligini shakllantirish manbai sifatida // O‘zbekiston xotin-qizlarining o‘qitish davri taraqqiyoti va ijtimoiy islohotlardagi ishtiroki (to‘plam). – Toshkent: Ayollar Resurs Markazi, 2002. - B. 53-56.; Zamonaviy o‘zbek ayoli – insoniyatning bebaho ma‘naviy boylik negizlari // *Sharq ayoli: kecha va bugun* (ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Toshkent, 2012. - B. 97-98; O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda NNTlarning o‘rni (Xotin-qizlar qo‘mitalarining faoliyati misolida) // *Xalqaro munosabatlar*, 2014, № 2. - B. 116-125.; Abdullayev M. O‘zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta‘minlashdagi dolzarb masalalar. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2021, № 2. - B. 114-120.

⁹Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – Москва: “Экономика”, 1993. 306 с.;

Емцова П., Коммандера С., Коричелли Ф. Безработица, структурная перестройка экономики и рынок труда в Восточной Европе и России. – Москва: “ИНФРА-М”, 1995. - 477 с.; Рофе А., Збышко Б., Ишин В. Рынок труда. Занятость населения. Экономика ресурсов для труда. - Москва: МИК, 1998. - 134 с.; Фромм Э. Мужчина и женщина. – СПб.: Питер, 1999; - 144 с.; Никифорова А.А. Рынок труда: занятость и безработица. - Москва: “Международные отношения”, 1999. - 184 с.; Агабекян Р.Л., Авагян Г.Л. Современные теории занятости. – Москва: ЮНИТИ - ДАНА, 2001. - 190 с.; Волгина Н.А., Одегов Ю.Г. Экономика труда (социально-трудовые отношения). – Москва: “ЭКЗАМЕН”, 2003. - 736 с.; Павленков В.А. Рынок труда, Занятость. Безработица: Учебник. – Москва, 2004. - 311 с.; Плакся В.И. Безработица: теория и современная Российская практика (социально-экономический аспект). – Москва: Изд-во РАГС, 2004, 384 с.; Агабекян Р., Баяндурян Г. Институциональная экономика: бизнес и занятость. Учебное пособие. - Москва: Магистр, 2008. - 462 с.; Карташов С., Түхтияева Л. Рынок труда и занятость населения. – Москва, 2023. - 372 с.; Казимов К. Рынок труда и занятость населения: учебник для среднего профессионального образования / К. Г. Казимов. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2024. - 214 с.;

Ортабаева Л.М. Необходимость и перспективы развития надомного предпринимательства и самозанятости. Автореф. дис... канд. экон. наук. – Ростов-на-Дону, 1998. – 21 с.; Золин И. Рынок труда и занятость населения в современной экономике. Автореф. дисс... канд. экон. наук. – Нижний Новгород, 2001. – 24 с.;

Азатян С.А. Регулирование рынка труда и занятости в РФ. Автореф. дисс.... канд. экон. наук. – Москва, 2007. – 22 с.; Назарова Т.Ю. Семейное предпринимательство в Российской Федерации: направления развития. Автореф. дис... канд. экон. наук. – Тамбов, 2018. – 24 с.; Шеденова Н.У. Женский труд в условиях рыночных отношений: социальные аспекты. Автореф. дисс... канд. экон. наук. – Алматы, 1998. – 21 с.

¹⁰Haber L. Women Pioneers of Science. – New York, 1974. – 78 p. Jallinoj R. Women Between the Family and Employment // *Changing Patterns in European Family Life: A Comparative Analysis of 14 European Countries*. – L., 1989. – P. 132–140. Yemmerij L. The Employment Problem and International Economy // *Ibid*. – 1994. – Vol. 130, № 4. – P. 458–465. Brittain A. Fully Employment in Industrialized Countries // *International Labour Review*. – Geneva, 1997. – Vol. 137, № 3. – 293 p. Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper, October No. 381, 2001. – 19 p. Krollokke Charlotte, Anne Scott Sorensen. Gender Communication Theories and Analyses: From Silence to Performance. – Sage Publications, 2005. – 114 p. Kamp M. The New Women in Uzbekistan: Islam, Modernity and Unveiling under Communism. – University of Washington Press, Seattle & London, 2006. – 320 p. Judith Glover. Women, Employment and Organizations. – California, 2012. – 1993 p. Sheryl Sandberg. Lean In: Women, Work, and the Will to Lead. – Boston, 2013. – 217 p. Julia Boorstin. When Women Lead. – Los Angeles, 2018. – 220 p.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni bandligining ta'minlanishiga qaratilgan davlat siyosatini Jizzax viloyati misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jizzax viloyatining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ulushini ilmiy jihatdan asoslash;

xotin-qizlar huquq va erkinliklari hamda bandligini ta'minlashining me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yoritish;

Jizzax viloyatida xotin-qizlar bandligini ta'minlash tizimining faoliyatini faktlar asosida ko'rsatib berish;

viloyatda bitiruvchi yoshlar bandligini ta'minlanishi yuzasidan qilingan ishlarni asoslab berish;

nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlarning natijalarini ko'rsatish;

viloyatda xotin-qizlar bandligini ta'minlashda hunarmandchilik korxonalar faoliyatini yoritish;

viloyat fermer xo'jaliklarida xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlarning natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ob'ektini mustaqillik yillari O'zbekistonda xotin-qizlar bandligini ta'minlash jarayoni tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti qilib, Jizzax viloyati xotin-qizlarning bandligini ta'minlashda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan loyihalar va mexanizmlarni o'rganish belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va muammoviy-xronologik, intervyu (sotsiologik so'rovnoma) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mustaqillikning dastlabki yillarida xotin-qizlar ko'proq maishiy xizmatlar ko'rsatish, bozorlarda mayda ulgurji va chakana savdo qilish, hunarmandchilik, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, chorva mahsulotlarini tayyorlash, asrlar davomida shakllangan xalq hunarmandchiligi, tikuvchilik va gilam to'qish kabi sohalarni davr talabiga mos ravishda takomillashtirib borishga harakat qilganliklari dalillandi;

viloyatda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashda xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi iqtisodiy taqchilik, shuningdek, ayollarga ishlash uchun zarur sharoitlar yaratilmaganligi (jumladan, transport vositalari bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi), ularning imkoniyatlari hisobga olingan holda ishchi o'rinlari yaratilmaganligi, bolalar bog'chalarining yetishmasligi kabi mavjud muammolarni bartaraf etishga yetarli darajada e'tibor berilmaganligi aniqlandi;

viloyatda aholini, ayniqsa, xotin-qizlarning bandligini ta'minlashda ichki imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmaslik holatlari ko'pligi, samarasiz foydanilayotgan binolar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni ishga tushirish uchun tadbirkorlarga sharoit yaratilmaganligi, yangi ish o'rinlari tashkil etish uchun ajratilgan mablag'lar o'z vaqtida o'zlashtirilmaganligi ko'rsatib o'tildi;

Jizzax viloyatida bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasblarga yo'naltirish maqsadida turli sohalarga o'qitilib ishga joylashtirilgan bo'lsada,

viloyatda kasb-hunar kollejlarning hududlar bo'yicha nomutanosib holda joylashganligi, chekka hududlarda istiqomat qilgan qizlarni hamshira, tarbiyachi, tikuvchilik sohalarini egallashga ko'maklashishi, ularni ishga joylashda ayrim oilalar qizlarini boshqa hududlarga yuborishni istamaganliklari ham yoshlarni ish bilan ta'minlashda muammolar saqlanib qolganligi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jizzax viloyati bo'yicha xotin-qizlarni bandligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan; olingan xulosalardan xotin-qizlarni bandligini ta'minlashda davlat va NNT hamkorligini yanada takomillashtirish yuzasidan chop etiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni statistik ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, ko'plab tarixiy adabiyotlar va normativ huquqiy hujjatlardan, joriy arxiv materiallardan foydalanilganligi, xotin-qizlar NNT rahbarlari bilan bo'lgan suhbat natijalarining amaliyotga joriy etilgani va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Respublikada bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni bandligini ta'minlash masalasi hudud misolida tarixiy-qiyosiy, tizimlilik, muammoli-xronologik metodlar asosida, ob'ektivlik tamoyiliga tayanib yoritilgani bois, ulardan mazkur tizimga oid metodologik-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, xotin-qizlar masalasi davlatning ustuvor vazifalari qatorida ekanligini ko'rsata olish, ijtimoiy himoya tizimida va umuman bandlik masalasida davlat hamda NNT hamkorligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda xotin-qizlar bandligining ta'minlanishi (1991-2021 yy. Jizzax viloyati misolida) tadqiqot davomida ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar huquq va erkinliklarini himoya qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda ijtimoiy himoya tizimida ularning bandligini ta'minlashni amalga oshirish mexanizmlari, maqsad va vazifalari, viloyatdagi NNT tomonidan xotin-qizlar bandligini ta'minlash, yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar, biroq, ayollarga ishlash uchun zarur sharoitlar yaratilmaganligi (jumladan, transport vositalari bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi), ularning imkoniyatlari hisobga olingan holda ishchi o'rinlari yaratilmaganligi kabi natijalaridan Jizzax viloyat hokimiyati Xotin-qizlar qo'mitasining bandlik masalasi bo'yicha ishlarini jadallashtirishda foydalanilgan (Jizzax viloyati hokimiyatining 2024-yil 28-martdagi 07-135-son ma'lumotnomasi). Qo'llanilgan natijalarda keltirilgan statistik ma'lumotlar viloyat Xotin-qizlar qo'mitasining bandlik masalasi bo'yicha ishlarini rivojlantirishga, bu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalarini boyitishga xizmat qilgan.

xotin-qizlar bandligini ta'minlashda samarasiz foydanilayotgan binolardan foydalanish va qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni ishga tushirishga ko'maklashish,

tadbirkorlarga sharoit yaratilmaganligi, ish o‘rinlarini yaratishga ajratilgan mablag‘lar o‘z vaqtida o‘zlashtirilmaganligi haqidagi dissertatsiya natijalaridan Jizzax viloyat hokimiyati Xotin-qizlar qo‘mitasining bandlik masalasi bo‘yicha ishlarini jadallashtirishda foydalanilgan (Jizzax viloyati hokimiyatining 2024-yil 28-martdagi 07-135-son ma‘lumotnomasi). Bu Xotin-qizlar qo‘mitasining bandlik masalasi bo‘yicha ishlarini jadallashtirishda, muammolarni har tomonlama ko‘rib chiqib, barataraf etishda belgilangan rejalarni yanada puxtalashtirishda ko‘maklashgan.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, ayollar huquq va erkinliklarini ta‘minlash, ularning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, xotin-qizlarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish, yoshlarni ish bilan ta‘minlash, ularni kasblarga yo‘naltirish maqsadida turli sohalarga o‘qitilib ishga joylashtirish, biroq bu borada viloyatning chekka hududlarida hamshira, tarbiyachi, tikuvchilik sohaslarini egallashga ko‘maklashish, ishga joylashda ayrim oilalar qizlarini boshqa hududlarga yuborishni istamaganliklari kabi muammolar mavjudligi kabi natijalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvining ssenariysini tuzish va tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi O‘zbekiston teleradiokanalining 2024-yil 9-apreldagi 02-31-483-son ma‘lumotnomasi). Ko‘rsatuvda xotin-qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish borasidagi davlat siyosati, bu borada yuzaga kelgan muammo va qiyinchiliklar tomoshabinlarda xotin-qizlarda mehnat va hayotning qadriga yetish tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qildi.

mustaqillikning dastlabki yillarida xotin-qizlar bandligini ta‘minlashda chorva mahsulotlarini tayyorlash, xalq hunarmandchiligi, tikuvchilik va gilam to‘qish kabi sohalarni takomillashtirib borilganligi haqidagi natijalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvining ssenariysini tuzish va tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi O‘zbekiston teleradiokanalining 2024-yil 9-apreldagi 02-31-483-son ma‘lumotnomasi). Bu tomoshabinlarda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda gilam to‘qish, so‘zana tikish bandlikni ta‘minlash yo‘llaridan biri ekanligi, oila budjeti asosi bo‘la olishi mumkinligi haqidagi qarashlarning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami, 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika, 5 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 122 ta sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqotning ob‘ekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda xotin-qizlar bandligini ta‘minlashning maqsad va vazifalari”** deb nomlanib, unda xotin-qizlarning jamiyatda ijtimoiy faolligini kuchaytirish orqali, ularning viloyatda davlat siyosatini amalga oshirishdagi faoliyatlarini kengaytirish masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Ma‘lumki, XX asr 90-yillarining boshlarida sovetlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ayollarning iqtisodiy hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib, sanoat korxonalarining yopilishi ishlab chiqarishning pasayishi va ayollarning ishsiz qolishiga sabab bo‘ldi¹¹. Ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki pasayib, bu ko‘rsatkich 1992-yilda 46,5 foizni, 1997-yilda esa 42,2 foizni¹² tashkil etdi. Ishsizlik natijasida ular vaqtinchalik qishloq xo‘jaligi ishlari yoki inson sog‘ligi uchun zararli mehnat turlari bilan shug‘ullanishga, hatto eng kam ish haqi to‘lanadigan ishlarni bajarishga majbur bo‘ldilar¹³.

Manbalarga ko‘ra, 1991-yil respublikada faol aholi soni 8 million 255 mingni tashkil etib, unda ayollar 3 million 632 ming nafar bo‘lgan¹⁴. 1991-1995-yillarda ish o‘rinlarining qisqartirilishi natijasida respublikada ishsiz qolganlarning 65 foizini xotin-qizlar tashkil etdi¹⁵. Erkaklarga nisbatan ayollar ishsizligi 1,5 barobar yuqori bo‘lgan. 1994-1998-yillar oralig‘ida mehnat birjasiga murojaat qilgan ayollar soni 1,5 baravarga oshdi. Jizzax viloyatining 8 ta tumanida ishsizlik holati tahlil qilinganda 141 166 nafar mehnatga yaroqli ayollarning 62 132 nafari yoki 44 foizi ishsiz bo‘ldi¹⁶. Shunday vaziyatda bozor munosabatlariga o‘tish, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ham yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmat ko‘rsatish, ayniqsa, aholi ongiga singgib qolgan boqimandalik psixologiyasini bartaraf qilish asosiy maqsad qilib qo‘yildi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 1995-1996-yillarda oilaviy tadbirkorlik asosida kasanachilikka e‘tibor kuchayib xotin-qizlarni farzand tarbiyasidan ajralmagan holda ish bilan ta‘minlashga kirishildi. Natijada, tadbirkor ayollar bandligi Navoiy viloyatida-438/516 nafarni, Surxondaryo viloyatida-145/195 nafarni, Jizzax viloyatida - 144/192 nafarni, Farg‘ona viloyatida -410/503 nafarni, Qoraqalpog‘iston Respublikasida-2978/3317 nafarni tashkil etdi¹⁷.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 18-fevraldagi “1999-yilda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish,

¹¹O‘zMA. M-69-fond, 1-ro‘yxat, 93-yig‘majild, 75-varaq.

¹²O‘zbekiston ayollari va erkaklari. Statistik to‘plam. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2002. – B. 107.

¹³Майорова Г. Правовой статус женщины в переходной период // Женщины Центральной Азии за мир и стабильность. – Ташкент – Хужанд, 2000. – С. 27.

¹⁴O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan 2019 yilda tayyorlangan maxsus ma‘lumot.

¹⁵O‘zMA. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 3487-yig‘majild, 11-varaq.

¹⁶O‘zMA. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 2569-yig‘majild, 12-varaq.

¹⁷O‘zMA. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 2559-yig‘majild, 133-varaq.

ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan davlat dasturi tadbirlari to'g'risida"gi 73-sonli qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida Jizzax viloyatida ishga joylashishni so'rab murojat qilgan 4321 nafar xotin-qizdan 3080 nafari ishga joylashtirildi. 560 nafariga esa, ishsizlik nafaqalari belgilandi. Viloyatning cho'l zonalarida fermer xo'jaliklari tashkil etilib, ularda xotin-qizlarning yetakchilik qilishlariga e'tibor qaratildi. Birgina Arnasoy tumanidagi 9 ta fermer xo'jaligi xotin-qizlar yetakchiligida faoliyat olib bordi. Viloyatda "Ustoz-shogird" usulida ham qizlarni kasbga o'rgatish yo'lga qo'yildi. Lekin, viloyatda cho'l xo'jaliklarining tarqoq joylashganligi qizlarni bir joyga to'plash va ularga ta'lim berish ishlarini jonlantirishga bo'lgan harakatlar to'liq amalga oshirilmadi.

O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi va uning qator xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilinishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi, Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Mehnat va bandlik sohasida kamsitishlar to'g'risida"gi konvensiyalaridagi xalqaro normalar¹⁸ milliy qonunchiligimizda uyg'unlashtirildi. 1995-yilda Toshkentda BMTda "Ayollar rivojlanishi" sektori ochildi, u 1996-yilda sektor "Gender va rivojlanish" Byurosi nomini oldi¹⁹. Mazkur hujjatlar xotin-qizlar bandligini ta'minlashga doir davlat siyosatini amalga oshirishda dasturil amal bo'ldi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan amalga oshirilgan monitoring natijalariga ko'ra, 2007-yilning 1-yanvar holatida, O'zbekistonda ishsizlar soni 320,2 ming kishini tashkil etgan. Mamlakatdagi jami ishsizlarning asosiy qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Jizzax viloyatlari hamda Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, ishsiz fuqarolarning katta qismini (65-70 %) qishloq aholisi tashkil etdi²⁰. 2011-yilda ayollar uchun yaratilgan ish o'rinlari respublika bo'yicha 457 621 tani, Jizzax viloyatida esa-20 363 tani tashkil etdi²¹.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "Obod mahalla" dasturi to'g'risida"gi PF-5467-sonli Farmoniga muvofiq "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturi qabul qilindi. Uni amalga oshirishda tadbirkorlarga tegishli bo'sh yer maydonlarini yoki foydalanilmayotgan bino va inshootlarni tadbirkor va hunarmandlarga "nol" qiymatida berishda tashabbuskor tadbirkorlarning mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalari "Obod mahalla" jamg'armasining moliyalashtirish manbalari qilib belgilandi²².

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida ham bir qator loyihalar e'lon qilindi. Xususan, "Har bir oila-tadbirkor" dasturi doirasida ajratilgan kreditlar miqdori

¹⁸Sultanova E.S. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida). – Toshkent: JIDU, 2005. – B. 139. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин, принятая Генеральной Ассамблеей ООН 18 декабря 1979 года. – Тошкент: Бюро Гендер и развитие, 1998. – С. 18.

¹⁹O'zMA. M-37-fond, 1-ro'yxat, 4518-yig'majild, 54-55-varaq.

²⁰Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011. – B.70.

²¹O'zMA. M-170-fond, 1-ro'yxat, 68-yig'majild, 6-varaq.

²²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Obod mahalla" dasturi to'g'risidagi PF-5467-sonli Farmoni // Xalq so'zi. 2018 yil 28 iyun.

bo'yicha Toshkent 15,0 foiz, Farg'ona 11,4 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi 10,1 foiz hududlarga to'g'ri kelgan. Eng kam ajratilgan mablag'lar Navoiy 3,2 foiz, Jizzax 3,4 foiz, Toshkent shahri 3,6 foiz, Sirdaryo viloyati 4,6 foizga to'g'ri kelgan. O'rganilayotgan davrda 51 200 ta loyihaning 40 foiz Agrobank, 34,1 foiz Xalq banki, 23,4 foiz Mikrokredit bank hissasiga to'g'ri keldi²³.

Shunday qilib tahliliy natijalarga ko'ra, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida eng kam mablag' ajratilgan hududlar Jizzax, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hisobiga to'g'ri keldi. Bunga hududlarda aholi o'rtasida tadbirkorlikka moyillik yetarli darajada yuqori emasligi, hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda viloyatlarning salohiyatidan kelib chiqqan holda kreditlarni ajratish va oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirishda kadrlar salohiyatining yetarli darajada bo'lmaganligi sabab bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“Viloyatda xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash tizimi va ularda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki”** deb nomlanib, unda xotin-qizlar asosan qishloq xo'jaligi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, yakka mehnat faoliyati, mahalliy yordamchi va o'zini o'zi band qilishning boshqa turlari bilan shug'ullanganliklari yoritilgan.

Respublika miqyosida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga doir davlat siyosatidan kelib chiqib, Jizzax viloyatida ham 1991-1992-yillarda mingdan ziyod xotin-qizlar ijtimoiy foydali mehnatga jalb etildi. Jumladan, 1992- yili Jizzax ustki trikotaj ishlab chiqarish birlashmasining Baxmal tumanidagi O'smat posyolkasi va Sangzor davlat xo'jaligi markazida filiallari ochilib, 200 nafar xotin-qiz doimiy ish bilan ta'minlandi²⁴. Jizzax trikotaj ishlab chiqarish fabrikasida 1994- yil jami ishlovchilar soni 1365 nafar shundan, xotin - qizlar 1160 nafarni²⁵, Jizzax ip yigiruv fabrikasida esa jami ishlovchilar 1200 nafar bo'lib, ulardan xotin - qizlar 950 nafarni²⁶ tashkil etgan.

Viloyat hokimining 1998-yil 4-martdagi №78-sonli “Oila manfaatlarini ta'minlash”ga doir qarori asosida 1998-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar Dasturi²⁷ ijrosini ta'minlash maqsadida Zafarobod tumanidagi QFY vakillarining aholini ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishga qaratilgan harakatlari natijasida 1998-yili turli kasb-hunarlariga o'qitilgan 40 nafar aholidan 31 nafarini ayollar tashkil etdi. “Oila yili” munosabati bilan tumanda 7711 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, shu yilning 10 oyi mobaynida ishsizlarning 1437 nafari ishga joylashtirildi. Shuningdek, 50 nafar ishsiz haq to'lanadigan jamoat ishlariga yuborilib, ulardan 46 tasini ayollar tashkil etdi²⁸. Biroq, viloyatda ayolarning bandligini ta'minlashga doir ishlarda ayrim tumanlar, masalan, Arnasoy, Mirzacho'l, Dashtobod tumanlaridagi holat ancha murakkab bo'lib, bandlik atigi 10-12 % ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

²³O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank ma'lumotlari. 16.01.2020. <https://cbu.uz>.

²⁴Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 9-ro'yxat, 138-yig'majild, 69-varaq.



²⁵Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 9-ro'yxat, 135-yig'majild, 31-varaq.

²⁶Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 9-ro'yxat, 135-yig'majild, 32-varaq.

²⁷Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 15-ro'yxat, 153-yig'majild, 21-varaq.

²⁸Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 15-ro'yxat, 149-yig'majild, 13-varaq.

Diagramma - II.1.3²⁹.



Viloyatdagi mavjud vaziyatni tartibga keltirish maqsadida 2005-yilda Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib, unda aholining ishsiz qatlamini ish bilan to'la ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. "Bandlik" dasturiga asosan esa 2005-yilning 1-yarmida 8066 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Yangi ish o'rinlarining asosiy qismi (5626 ta) qishloq joylarida vujudga keltirildi³⁰.

2008-yilda Jizzax viloyatida xotin-qizlar o'rtasida ishsizlik holati bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning 41,0 % to'liq, 26,3 % mavsumiy, 21,5 % qisman, 10,2 % vaqtinchalik ishsiz ekanligi aniqlandi. Tadqiqotga jalb etilgan xotin-qizlarning 25 % oliy; 48,4 % o'rta; 25,2 % boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgan³¹.


Viloyatda xotin-qizlarining bandlik holati bo'yicha statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra 2007-yili band bo'lgan aholining 50 %ga yaqini ayollar ulushiga to'g'ri kelsa, 2009-yili bu ko'rsatkich 22-23 % ga tushib ketgan. Foizlarning o'zgarishiga demografik holatning o'zgarishi, yangi ish o'rinlarini yaratilishidagi uzilishlar bilan izohlanadi.

²⁹Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 15-ro'yxat, 148-yig'majild, 8-varaq.

³⁰Jizzax viloyati davlat arxivi., 448-fond, 30-ro'yxat, 22-yig'majild, 236-varaq.

³¹Bobonazarova J.X. Qishloq ayollarining ishsizligini kamaytirish (Jizzax viloyati misolida). Iqtisod fan. nomz. ilm. daraja olish uchun yoz. diss. – Toshkent, 2002. – B. 101.

Diagramma - II.1.6³².



Viloyatda yangi ish o‘rinlari yaratish maqsadida O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tomonidan 2016-yi “Ishbilarmon ayol” ko‘rik tanlovi o‘tkazildi. Tanlovning Respublika bosqichida Jizzax viloyatidan ishtirok etgan “Xolmo‘min-Zohid” fermer xo‘jaligi rahbari Sharofat Noriyeva ikkinchi o‘rinni egalladi³³. Bu viloyatda xotin-qizlar faolligiga turtki bo‘lishi natijasida, 2017-yili aholi bandligiga ko‘maklashish markazlariga ish so‘rab murojaat etgan 11 847 nafar fuqaroning 5358 nafari xotin-qizlar, 6026 nafari yoshlar³⁴ bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 martdagi PQ-4277-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2019-yilda aholi bandligiga ko‘maklashish Davlat dasturiga asosan 2019-yilda viloyatda jami 19 ming 285 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirildi, biroq, samarasiz foydanilayotgan binolar va qurilishi tugallanmagan ob‘ektlar negizida amalga oshiriladigan 220 ta loyiha oxiriga yetkazilmadi. Viloyatning Mirzacho‘l tumanida 51,7 %, Do‘stlik tumanida 70,5 %, Paxtakor tumanida 86,4 %, Zafarobod tumanida 93,6 %, Zomin tumanida 92,9 % dastur ijrosi belgilangan darajada ta‘minlanmadi³⁵. Bu masala bilan bog‘liq yana bir achinarli jihat ayollarning xorijiy mamlakatlarga ishga chiqib ketish holatlari bo‘ldi. Masalan, 2018-yilning 1-aprel holatiga viloyat bo‘yicha ishlash uchun chet davlatlarga chiqib ketgan ayollar 7 ming 722 nafarni, qaytib kelgan ayollar esa 593 nafarni tashkil etdi.

Jizzax viloyatida 2019-yilda 560 nafar og‘ir turmush sharoitida yashayotgan ayollar, yosh xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash dasturi qabul qilingan edi. Ammo 2019-yilning 12 oyi davomida ish qidirib davlat idoralariga 15 098 nafar xotin-qizlar murojaat qilgan bo‘lsa, bor-yo‘g‘i 6696 nafari 44 % atrofida ish bilan ta‘minlandi³⁶.

2021-yilda esa viloyat bo‘yicha ish so‘rab murojaat etganlarning umumiy soni 73 636 nafar bo‘lib, ularning 32 680 nafarini xotin-qizlar, 25 715 nafari yoshlar tashkil etadi. Murojaat etganlardan jami, bor-yo‘g‘i 16 312 nafar (o‘rtacha hisobda 23 foizi), ulardan 7343 nafari ayollar (22,5 foizi), 6929 nafari (27 foizi atrofida) yoshlar doimiy ishga joylashtirildi³⁷.

³²Respublikamizda jami iqtisodiy faol aholining umumiy sonidan ishsizlar soni, jumladan, xotin-qizlar (2007–2020 yillar.) <https://gender.stat.uz/>.

³³“Ishbilarmon ayol” ko‘rik-tanlovining Respublika bosqichi g‘oliblari aniqlandi. <https://www.uzdaily.uz/uzc/>. Murojaat qilingan sana: 04.01.2024.

³⁴Jizzax viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining joriy arxivi. 06.04.2024.

³⁵Jizzax viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining joriy arxivi. 06.04.2024.

³⁶Jizzax viloyati G‘allaorol tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining joriy arxivi. 13.04.2024.

³⁷Jizzax viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining joriy arxivi. 06.04.2024.

Jizzax viloyatida bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasblarga yo'naltirish borasida bir qator chora-tadbirlar olib borildi. 1993-yil viloyatdagi 15 ta kasb-hunar bilim yurtlarida, jami 5115 o'quvchi 48 ta mutaxassislik bo'yicha ta'lim olgan bo'lib, bu o'quvchilardan 1672 nafarini qizlar tashkil etdi³⁸. Ta'kidlash joizki, viloyatning chekka hududlarida istiqomat qilgan xotin-qizlar uchun kasbni tanlashda bir qator muammolar bo'lgan. Bu ularning uzoq hududlarga borib o'qishlari va ishlashlari, hamshira, tarbiyachi, tikuvchi va boshqa shu kabi kasblarni egallashlari uchun to'siqlar bo'lgan, ba'zi holatlarda yoshlarning o'zlarida ham kasbiy ta'limga qiziqish bo'lmagan.

1999-yilda oilalarga ijtimoiy pedagogik sharoitlarni yaratish, bolalarni kasbga tayyorlash jarayonida viloyat bo'yicha 126 fuqaro asosan yoshlar viloyatning maishiy xizmat xodimlariga zardo'z, teleradio ustasi, etikdo'z ustasi, tikuvchi, tarbiyachi, oshpaz kasblariga, o'ymakor, taqachi, sandiqchi, sartaroshlik kasblariga o'qitilgan. 2000-2001-o'quv yilida respublikada 287 ta akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2013-yilga kelib zamonaviy vositalar bilan jihozlangan 1539 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar faoliyat yuritdi.

2012-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Jamoat fondining granti asosida "Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik asoslariga o'rgatish" loyihasi ham amalga oshirildi. Loyiha doirasida viloyatning 8 ta hududida ya'ni Jizzax shahri, Arnasoy, Jizzax, G'allaorol, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod va Paxtakor tumanlarida ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan (jami 400 nafar) ayollar va kollej bitiruvchi qizlarini tikuvchilik, pazandachilik va sartaroshlik hunarlari bo'yicha qisqa muddatli bepul o'quv kurslari tashkil etildi³⁹. Tadbirkorlik bo'yicha o'tkazilgan seminarlarda 1200 dan ziyod ayollarga kredit olish tartiblari, soliq imtiyozlari, biznes reja tuzish va boshqa bo'yicha tegishli maslahatlar berilgan.

Shu bilan birga, "Tadbirkor ayol" uyushmasi tomonidan 2016-yili Jizzax viloyati bo'limi tomonidan xotin-qizlar va kasb-hunar kollejlari bitirgan yosh qizlarni kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni va umuman olganda bandligini ta'minlash dasturi doirasida 32,2 ming, jumladan, hisobot yilida xotin-qizlar uchun 16,3 ming ish o'rni yaratildi⁴⁰.

Xotin-qizlarni bandligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi.

1990-yillarda O'zbekistonda turli NNT yuzaga keldi. "Ulug'bek nomidagi iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlash Respublika fondi" hamda O'zbekiston ishbiarmon ayollarining "Tadbirkor ayol" uyushmalari shular jumlasidan edi. 1991-yildan 1996-yilgacha bo'lgan davrda Respublikada NNTning o'sishi natijasida ularga ehtiyoj tobora oshib bordi.

1991-yilda "O'zbekiston Respublikasi Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun asosida O'zbekistonda NNT shakllantirildi, O'zbekiston Respublikasining

³⁸Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 9-ro'yxat, 135-yig'majild, 11-varaq.

³⁹Jizzax viloyat "Qalb nuri" ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash markazining joriy arxivi. 21.08.2024.

⁴⁰Jizzax viloyatida xotin-qizlar uchun 16 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi. //https://www.gov.uz/uz/news.

